



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 214-219 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TO'LOV AYLANMASINING MOHIYATI XUSUSIDA



Ilxom Sayfiddinov,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Annotatsiya: Maqolada to'lov aylanmasining iqtisodiy mohiyati pul aylanmasi, to'lov kategoriyasi va to'lov oqimlari bilan o'zaro bog'liqlikda tadqiq etiladi. An'anaviy adabiyotlarda to'lov aylanmasi ko'pincha pulning to'lov vositasi funksiyasi bilan cheklangan holda talqin qilinishi ko'rsatiladi. Tadqiqotda to'lovlarning pulning barcha funksiyalari, kredit instrumentlari, o'zaro talablarni hisobga olish, veksellar, qimmatli qog'ozlar va barter shakllari orqali namoyon bo'lishi asoslanadi. Natijada to'lov aylanmasi pul aylanmasining oddiy tarkibiy qismi emas, balki tovarlar qiymati, kapitallar va daromadlarning realizatsiya qilinishi, taqsimlanishi va muomalada bo'lishini ta'minlovchi pul-kredit to'lov oqimlari o'zaro bog'liqligining tashkil etilish shakli sifatida izohlanadi.

Kalit so'zlar: to'lov, to'lov aylanmasi, pul aylanmasi, to'lov oqimi, pul funksiyalari, kredit munosabatlari, veksellar, qimmatli qog'ozlar, barter, iqtisodiy kategoriya.

Аннотация: В статье исследуется экономическая сущность платежного оборота во взаимосвязи с денежным оборотом, категорией платежа и платежными потоками. Показано, что в традиционной литературе платежный оборот часто трактуется ограниченно - через функцию денег как средства платежа. В исследовании обосновано, что платежи проявляются через все функции денег, кредитные инструменты, зачет взаимных требований, векселя, ценные бумаги и бартерные формы. В результате платежный оборот раскрывается не как простая составная часть денежного оборота, а как форма организации взаимосвязи денежных и кредитных платежных потоков, обеспечивающих реализацию, распределение и обращение стоимости товаров, капиталов и доходов.

Ключевые слова: платеж, платежный оборот, денежный оборот, платежный поток, функции денег, кредитные отношения, векселя, ценные бумаги, бартер, экономическая категория.

Abstract: The article examines the economic essence of payment turnover in relation to money circulation, the category of payment and payment flows. It shows that traditional literature often interprets payment turnover narrowly through the function of money as a means of payment. The study substantiates that payments are manifested through all functions of money, credit instruments, offsets of mutual claims, bills of exchange, securities and barter forms. As a result, payment turnover is interpreted not as a simple component of money circulation, but as an organizational form of interrelated monetary and credit payment flows that ensure the realization, distribution and circulation of the value of goods, capital and income.

Keywords: payment, payment turnover, money circulation, payment flow, functions of money, credit relations, bills of exchange, securities, barter, economic category.

KIRISH

Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, hisob-kitob shakllarining diversifikatsiyalashuvi va bank-kredit munosabatlarining kengayishi to'lov aylanmasi mohiyatini ilmiy jihatdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Amaliyotda to'lov aylanmasi ko'p hollarda pul aylanmasining tarkibiy qismi yoki pulning to'lov vositasi sifatidagi harakati bilan bog'liq hodisa sifatida tushuntiriladi. Biroq bunday yondashuv zamonaviy iqtisodiyotdagi to'lov munosabatlarining murakkab tarkibini to'liq aks ettira olmaydi.

Hozirgi sharoitda to'lovlar faqat pul mablag'larini o'tkazish orqali emas, balki o'zaro talablarni hisobga olish, kredit majburiyatlari, veksellar, qimmatli qog'ozlar, barter hamda boshqa moliyaviy instrumentlar orqali ham amalga oshiriladi. Shu bois to'lov aylanmasini faqat pulning bitta funksiyasi bilan bog'lash ilmiy va amaliy jihatdan yetarli emas.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, to'lov aylanmasining mohiyatini to'g'ri aniqlash to'lov intizomi, bank hisob-kitoblari, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi majburiyatlar, pul-kredit siyosati va moliyaviy barqarorlikni baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi to'lov aylanmasi mohiyatini pul aylanmasi, to'lov kategoriyasi va to'lov oqimlari bilan bog'liq holda nazariy-metodologik jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun to'lov aylanmasiga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi, pul funksiyalari va to'lov instrumentlari o'rtasidagi bog'liqlik ochib berildi hamda to'lov aylanmasining umumlashtirilgan ilmiy ta'rifi shakllantirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi to'lov aylanmasini pul aylanmasining cheklangan qismi sifatida emas, balki pul va kredit to'lov oqimlari o'zaro bog'liqligining tashkil etilish shakli sifatida talqin qilishda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda to'lov aylanmasi mohiyatiga nisbatan an'anaviy yondashuv uzoq vaqt davomida ustunlik qilgan. G.A. Shvars to'lov aylanmasini pulni to'lov vositasi sifatida foydalanish bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar majmui sifatida ta'riflaydi va shu asosda uni pul aylanmasining bir qismi deb hisoblaydi [1]. Mazkur yondashuvda to'lov aylanmasi pulning bitta funksiyasi doirasida izohlanadi.

Moliya-kredit lug'atida ham to'lov aylanmasi pul aylanmasining majburiyatlarni uzishga xizmat qiluvchi qismi sifatida tavsiflanadi [2]. V.A. Chjen tahriri ostidagi iqtisodiy terminlar izohida to'lov aylanmasi naqd va naqd pulsiz shakllarda amalga oshiriladigan pul aylanmasining qismi sifatida talqin qilinadi [3]. Sh.Z. Abdullaeva to'lov aylanmasini pulning to'lov vositasi sifatidagi harakati tufayli vujudga keladigan pul aylanmasi sifatida izohlaydi [4].

M.P. Berezina pul aylanmasining asosiy qismini to'lov aylanmasi tashkil etishini ta'kidlaydi [5]. B.A. Rayzberg, L.Sh. Lozovskiy va E.B. Starodubtseva, shuningdek A.B. Borisov to'lov aylanmasini korxonalar va kompaniyalar pul aylanmasining majburiyatlarni uzish bilan bog'liq qismi sifatida ko'rsatadilar [6; 7]. Ushbu qarashlar amaliy hisob-kitob jarayonlarini tushuntirishga xizmat qilsa-da, to'lovlarning kredit, qimmatli qog'ozlar, veksellar va barter vositalari orqali amalga oshirilishini yetarli qamrab olmaydi.

A.M. Kosoyning ilmiy qarashlari an'anaviy yondashuvdan farq qiladi. U to'lovlar majmui faqat pulning to'lov vositasi funksiyasiga asoslanmasligini, balki pulning boshqa

funksiyalari va kredit instrumentlari ishtirokida ham shakllanishini asoslaydi [8; 9]. V.V. Karchevskiy esa barcha pul to'lovlari majmuini to'lov aylanmasi sifatida ko'radi [10]. Biroq bunday ta'rif ham to'lov oqimlari ichidagi va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni to'liq ochib bermaydi.

Shu nuqtai nazardan, to'lov aylanmasini faqat pul aylanmasi yoki pulning to'lov vositasi funksiyasi doirasida emas, balki to'lov, to'lov oqimi, pul-kredit instrumentlari va iqtisodiy munosabatlar tizimi kesishmasida shakllanadigan murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida tadqiq etish zarur.

1-jadval.

To'lov aylanmasi mohiyatiga oid asosiy nazariy yondashuvlar¹

Yondashuv	Asosiy mazmun	Ilmiy baho
Pulning to'lov vositasi funksiyasiga asoslangan yondashuv	To'lov aylanmasi pulning to'lov vositasi sifatidagi harakati bilan bog'liq to'lovlar majmui sifatida talqin qilinadi.	An'anaviy yondashuv bo'lib, to'lovning boshqa instrumentlar orqali amalga oshirilishini cheklangan holda izohlaydi.
Pul aylanmasining tarkibiy qismi yondashuvi	To'lov aylanmasi pul aylanmasining bir qismi sifatida ko'riladi.	Amaliy hisob-kitoblarni yoritadi, ammo to'lov aylanmasining pul aylanmasidan kengroq mazmunini to'liq ochmaydi.
Kompleks instrumentlar yondashuvi	To'lovlar pul mablag'lari, o'zaro talablarni hisobga olish, veksellar, qimmatli qog'ozlar va barter orqali namoyon bo'ladi.	Zamonaviy to'lov munosabatlarining ko'p instrumentli xususiyatini ochib beradi.
Pul-kredit to'lov oqimlari yondashuvi	To'lov aylanmasi pul va kredit to'lov oqimlari o'zaro bog'liqligining tashkil etilish shakli sifatida talqin qilinadi.	Maqolada asoslanayotgan yondashuv bo'lib, tovarlar qiymati, kapital va daromadlar harakatini kompleks izohlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, tizimli yondashuv va kategorial tahlil metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil to'lov aylanmasi, pul aylanmasi, to'lov va to'lov oqimi kategoriyalarining o'zaro aloqasini aniqlashga xizmat qildi.

Qiyosiy tahlil yordamida to'lov aylanmasi mohiyatiga oid turli ilmiy qarashlar solishtirildi. Xususan, to'lov aylanmasini pul aylanmasining bir qismi sifatida talqin qiluvchi yondashuvlar bilan uni pul-kredit to'lov oqimlari orqali izohlovchi yondashuvlar o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi.

Kategorial tahlil to'lovni iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib chiqish, uning pul va kredit munosabatlari bilan bog'liqligini ochish hamda to'lov aylanmasining tarkibiy elementlarini ajratish imkonini berdi. Tizimli yondashuv esa to'lov aylanmasini alohida to'lovlar yig'indisi emas, balki takrorlanuvchi to'lov aloqalari va to'lov oqimlari o'zaro ta'siri sifatida tahlil qilishga yo'naltirildi.

¹ Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar tahlili asosida shakllantirilgan.

Tadqiqotning mantiqiy ketma-ketligi quyidagicha belgilandi: avvalo to'lov aylanmasiga oid an'anaviy ta'riflar tahlil qilindi; keyin pulning barcha funksiyalari va kredit instrumentlarining to'lov jarayonidagi roli asoslandi; undan so'ng to'lov oqimlari orqali to'lov aylanmasining mohiyati ochib berildi; yakunda esa to'lov aylanmasining umumlashtirilgan ilmiy ta'rifi shakllantirildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'lov aylanmasini faqat pulning to'lov vositasi funksiyasi bilan bog'lash uning iqtisodiy mohiyatini toraytiradi. Sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitoblarda pul nafaqat to'lov vositasi, balki qiymat o'lchovi, muomala vositasi, jamg'arish vositasi va ayrim hollarda jahon pullari sifatida ham namoyon bo'ladi.

2-jadval.

To'lov aylanmasi mohiyatini aniqlashga xizmat qiluvchi asosiy elementlar²

Element	Mazmuni	To'lov aylanmasidagi roli	Ilmiy ahamiyati
To'lov	Pul va kredit ko'rinishidagi moddiy shakllanmalar mavjudligining umumiy shakli.	Majburiyatlar bajarilishi, qiymat harakati va xo'jalik aloqalarini ifodalaydi.	To'lov aylanmasining kategorial negizini tashkil etadi.
To'lov oqimi	Muayyan davrda iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir xil to'lovlar majmui.	To'lovlarni yo'nalishi, mazmuni va harakat shakliga ko'ra tizimlashtiradi.	Aylanmani alohida to'lovlar yig'indisi emas, oqimlar tizimi sifatida tahlil qilish imkonini beradi.
Pul funksiyalari	Pul qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi, jamg'arish vositasi va jahon pullari sifatida namoyon bo'ladi.	To'lov aylanmasi pulning faqat bitta funksiyasi bilan cheklanmasligini ko'rsatadi.	To'lov aylanmasining ko'p funksiyali iqtisodiy mazmunini ochadi.
Kredit instrumentlari	Veksellar, qimmatli qog'ozlar, majburiyatlar va boshqa moliyaviy vositalar.	Pul o'rmini bosuvchi yoki to'lovni kechiktiruvchi mexanizmlar orqali aylanmaga xizmat qiladi.	Pul aylanmasi va to'lov aylanmasi o'rtasidagi farqni asoslaydi.
To'lov aylanmasi	Tovarlar qiymati, kapitallar va daromadlar realizatsiyasi, taqsimlanishi hamda muomalasini ta'minlovchi pul-kredit to'lov oqimlari bog'liqligi.	To'lov oqimlari ichidagi va ular o'rtasidagi takrorlanuvchi iqtisodiy aloqalarni birlashtiradi.	Maqolaning umumlashtirilgan ilmiy ta'rifini ifodalaydi.

To'lov munosabatlarida pul mablag'lari bilan bir qatorda o'zaro talablarni hisobga olish, veksellar, qimmatli qog'ozlar, barter va pul majburiyatlarini talab qilish huquqini

² Manba: muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.

boshqa subyektga berish kabi instrumentlarning mavjudligi to'lov aylanmasining pul aylanmasidan kengroq mazmunga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tahlillar asosida to'lov aylanmasi to'lovlarni oddiy mexanik yig'indisi sifatida emas, balki to'lov oqimlari majmui sifatida talqin qilinishi kerakligi aniqlandi. Chunki to'lov oqimlarida to'lovlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra konsentratsiyalanadi, ular harakatlanish shakli, yo'nalishi va iqtisodiy munosabatlarga xizmat qilish xususiyatiga ko'ra farqlanadi.

To'lov aylanmasining mohiyatini ochishda uch asosiy kategoriya muhim ahamiyatga ega: to'lov, to'lov oqimi va to'lov aylanmasi. To'lov pul va kredit munosabatlarining umumiy shakli sifatida namoyon bo'ladi. To'lov oqimi muayyan davrda iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir xil to'lovlarning tizimlashgan majmuidir. To'lov aylanmasi esa pul va kredit to'lov oqimlari o'zaro bog'liqligining tashkil etilish shaklidir.

Tadqiqotda to'lov aylanmasi va pul aylanmasini tenglashtirish metodologik jihatdan to'g'ri emasligi asoslandi. Agar to'lov aylanmasi faqat pul bilan amalga oshiriladigan aylanmaga tenglashtirilsa, veksellar, o'zaro hisob-kitoblar, barter va boshqa almashtiruvchi instrumentlar yordamida pulni iqtisod qilish imkoniyatlarini tadqiq etish yo'li cheklanadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, to'lov aylanmasini pul aylanmasining oddiy tarkibiy qismi sifatida talqin qilish zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning real holatiga to'liq mos kelmaydi. Chunki to'lov aylanmasida pul muhim o'rin tutsa-da, u barcha to'lov munosabatlarini yagona o'zi bilan qamrab olmaydi.

To'lov aylanmasida pulning barcha funksiyalaridan foydalanilishi mazkur kategoriyaning murakkabligini ko'rsatadi. Masalan, mahsulotlar uchun hisob-kitoblarda pul qiymat o'lchovi va muomala vositasi sifatida, majburiyatlarni qaytarishda to'lov vositasi sifatida, mablag'lar qoldig'i shakllanganda esa jamg'arish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois pulning to'lov vositasi funksiyasi asosiy bo'lib qolsa-da, to'lov aylanmasini faqat shu funktsiya bilan cheklash noto'g'ri hisoblanadi.

To'lov aylanmasi va pul aylanmasini tenglashtirish ham nazariy jihatdan muammolidir. Masalan, mol yetkazib beruvchi tovarni sotib oluvchiga jo'natib, uning vekselini olgan holatda to'lov majburiyati yuzaga keladi, ammo real pul aylanmasi veksellarning muddati tugagunga qadar kechiktiriladi. Bu holat to'lov aylanmasi pul aylanmasidan kengroq tushuncha ekanligini ko'rsatadi.

Ayni paytda to'lov aylanmasi to'lovlarni bevosita oddiy birlashtirmaydi, balki to'lov oqimlarini birlashtiradi. To'lov oqimlari ichida va ular o'rtasida iqtisodiyotda uzluksiz takrorlanadigan to'lov aloqalari mavjud bo'ladi. Ushbu aloqalar tovarlar qiymati, kapital va daromadlarning realizatsiya qilinishi, qayta taqsimlanishi va muomalada bo'lishini ta'minlaydi.

Shu asosda to'lov aylanmasiga quyidagi umumlashtirilgan ta'rif berish maqsadga muvofiq: tovarlar qiymati, kapitallar va daromadlarning realizatsiya qilinishi, taqsimlanishi va muomalada bo'lishi sodir bo'ladigan pul va kredit to'lov oqimlari o'zaro bog'liqligining tashkil etilish shakliga to'lov aylanmasi deyiladi. Ushbu ta'rif to'lov aylanmasining pul, kredit, majburiyatlar, to'lov instrumentlari va iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liq murakkab mazmunini kompleks ravishda ifodalaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, to'lov aylanmasi mohiyatini aniqlashda to'lov kategoriyasi va to'lov oqimlari tayanch nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. To'lov aylanmasini pul aylanmasining oddiy tarkibiy qismi sifatida talqin qilish uning zamonaviy iqtisodiyotdagi ko'p instrumentli va ko'p funksiyali xususiyatini to'liq ochib bera olmaydi.

To'lov aylanmasi pulning faqat to'lov vositasi funksiyasi orqali emas, balki pulning barcha funksiyalari, kredit instrumentlari, o'zaro talablarni hisobga olish, veksellar, qimmatli qog'ozlar, barter va boshqa moliyaviy vositalar orqali shakllanadi. Shu sababli pul aylanmasi ayrim hollarda pul yordamida bajariladigan to'lov aylanmasining bir qismi sifatida qaralishi mumkin.

Maqolada asoslangan yondashuv to'lov aylanmasini tovarlar qiymati, kapitallar va daromadlarning realizatsiya qilinishi, taqsimlanishi hamda muomalada bo'lishini ta'minlovchi pul-kredit to'lov oqimlari o'zaro bog'liqligining tashkil etilish shakli sifatida izohlash imkonini beradi.

Ushbu yondashuv to'lov intizomi, bank hisob-kitoblari, pul-kredit siyosati, xo'jalik subyektlari majburiyatlari va moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda to'lov aylanmasining raqamli to'lov tizimlari, elektron pul, banklararo hisob-kitoblar va iqtisodiy o'sish bilan bog'liq empirik jihatlarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shvars, G. A. (1963). *Beznalichnyy oborot i kredit v SSSR*. Moskva: Gosfinizdat.
2. *Finansovo-kreditnyy slovar*. T. 2. (1986). Moskva: Finansy i statistika.
3. Chjen, V. A. (Ed.). (1995). *Yazyk biznesa*. Terminy. Toshkent: IPK «Shark».
4. Abdullaeva, Sh. Z. (2007). *Pul, kredit va banklar*. Toshkent: Iqtisod-moliya.
5. Berezina, M. P. (1997). *Beznalichnye raschety v ekonomike Rossii: Analiz praktiki*. Moskva: AO «Konsaltbankir».
6. Rayzberg, B. A., Lozovskiy, L. Sh., & Starodubtseva, E. B. (2000). *Sovremennyy ekonomicheskyy slovar*. Moskva: Infra-M.
7. Borisov, A. B. (2003). *Bolshoy ekonomicheskyy slovar*. Moskva: Knizhnyy mir.
8. Kosoy, A. M. (1978). *Upravlenie beznalichnym platezhnym oborotom*. Moskva: Finansy.
9. Kosoy, A. M. (2005). *Platezhnyy oborot: Issledovanie i rekomendatsii*. Moskva: Finansy i statistika.
10. *Finansy Rossii: Statisticheskyy sbornik*. (2007). Moskva.
11. Poliak, G. B. (Ed.). (2001). *Finansy. Denezhnoye obrashcheniye*. Kredit: Uchebnik. Moskva: UNITI-DANA.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

